

## **Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish**

***Erdanova Zamira Olimovna***

*Termiz davlat pedagogika institute*

*“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedraasi o'qituvchisi,*

***Safarqulova Nasiba Olimjonovna***

*Termiz shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Termiz (O'zbekiston)*

*E-mail: zamiraerdanova8@gmail.com*

*Тел: +998904111292*

**Annotatsiya.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, o'yin turlari, rebuslar, krossvord, pedagogik texnologiyalar asosida bolalardagi ko'nikmalarni yanada yaxshilash va rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik ta'lim texnologiyalarni o'yin, rebuslar, krossvord, pedagogik ko'nikmalar, refleksiya.

**KIRISH** Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizasiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilinayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli islox qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quvtarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'quvchilarning fikrlashi hamda analitik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini

ta'kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, refleksiya tashkil etadi. Refleksiya so'zi (lot.«reflexsio»-orqaga qaytish)-«har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shakli hisoblanadi. U inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir». Ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi: 1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi. 2. Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi. 3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi. 4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat. O'qituvchining bilimni rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati beqiyosdir. Shunday ekan Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlarning fikricha, o'qituvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedogoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedogoglar, xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda yangi zamon ruhini, yangi nafasni olib kirish orqali o'qituvchilar bilimni rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'stirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi. Chunki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diqqati beqaror bo'lib, bir soat uchun mo'ljallangan saboqni sabr-toqat bilan tinglay olmaydi. Bilim olishda avval o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, ayniqsa, muhim vosita hisoblansa-da, bolalar uchun zerikarli jarayondir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ona tili, matematika darslarida yozish natijasida qo'llarni toliqishi, o'qish darslarida bir mavzuni takrorlab o'qish bolalarni zeriktiradi. O'qituvchilarni kayfiyatini ko'tarish, toliqqan qo'llarini chigalini yozish maqsadida, turli didaktik vositalar hamda o'yinlar o'tkazish o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda yaxshi samara beradi. Didaktik vositalarga boshqotirma, krossvord, rebus, topishmoq, topshiriq va boshqalar kiradi. Krossvord. "Krossvord" atamasi

ingliz tilidagi “cross” va “word” soʻzidan olingan boʻlib, mantiqan (“cross” – kesib oʻtish, kesishma, “word” –soʻz) “bir-biri bilan kesishadigan soʻzlar yigʻindisi”, lugʻaviy maʼnosiga koʻra esa “kataklarni xarflar bilan toʻldirib, shu kataklarga yashirilgan, ishlanayotgan soʻzni topish oʻyini” , - mazmunini anglatadi. Rebus. Lugʻaviy maʼnosiga koʻra (“lotincha” narsa, buyum, narsalar bilan, narsalar vositasida) tushunchasi “voqea, hodisa, harakat maʼnosi mavxum soʻzlar, teskari, chalkash ifodalar yordamida ifodalash”, demakdir. Ushbu vositalardan foydalanish dars samaradorligi va refleksiv koʻnikmalarni rivojlantirishda asos boʻla oladi. Oʻyin – inson faoliyatining koʻrinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. Oʻyin – inson oʻzligining namoyon boʻlishi, uning takomillashuv usulidir. Oʻyin kattalar hayotida muayyan oʻrin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamroxi” ham deb atash qabul qilingan. U bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va taʼlim bilan uzviy aloqada boʻlgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon boʻladi. Bola shugʻullanadigan koʻp jddiy ishlar oʻyin shaklida boʻladi. Oʻyinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, oʻylaydi. Taʼlimiy oʻyinlarning yana bir jihati shuki, u bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning oʻzida ishlashini taʼminlaydi. Miyadagi bunday faollik berilgan axbarotni bir vaqtning oʻzida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni taʼminlaydi. Shularni inobatga olgan zamonaviy oʻqituvchidan har bir darsni didaktik oʻyinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Shuning natijasida esa kun davomida bolada charchoq, toliqish kuzatilmaydi. Oʻquv-bilim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish bolada oʻqishga boʻlgan motivatsiyani toʻgʻri yoʻnaltirilganligiga bogʻliq. Didaktik oʻyinlar aynan shunday motivatsiyani bera oladi. Taʼlim jarayonini alohida jarayon sifatida koʻrib uni bolaning asosiy faoliyati boʻlmish oʻyin faoliyatidan ajratib qoʻyish esa bolani qafasga solib qoʻyish bilan barobar.Oʻyin faoliyati gʻolib yoki magʻlub tushunchalardan iborat boʻlib dars jarayonida qoʻllanilganda bola gʻolib bolish uchun kurashadi va ana shu kurash natijasida berilgan axbarotni diqqat bilan tinglab bilimlarni osongina egallab oladi. Bir vaqtning oʻzida bu bilimlarni hayotda qoʻllab koʻradi. Misol tariqasida “33ta 33”didaktik oʻyinida bola koʻpaytirish jadvalini yaxshi yodlagan boʻlishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak boʻladi.Oʻyin sharti sinf oʻquvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga boʻlinadigan sonlar aytilmay oʻrniga qarsak chalinadi.

(1,2, qarsak, 4,5,qarsakvah.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil qilingan darslarda integratsiya ya'ni fanlar aro bog'lanish yaqol ko'zga tashlanadi. Matematika darsida "Sayohat dars" didaktik o'yinini misol qilib oladigan bo'lsak, matematika darsini bir vaqtning o'zida ona tili va tabiat fanlari bilan bog'lash mumkin. Didaktik topshiriq: berilgan misollarni to'g'ri va aniq yechish xatolar ustida ishlay olish. O'yin topshirig'i: O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash o'yinshart, magnit doskaga aeroport maketi chizilgan surat osib qo'yilgan. Suratda qadimiy shaharlarimiz nomlari yozib qo'yilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari soniga mos chiptalar tayyorlangan bo'lib chiptalarning orqa tomonida misollar berilgan bo'ladi, old tomonida yo'nalishlar yozilgan bo'ladi. Masalan, Buxoro-Toshkent, Buxoro-Xiva singari. O'quvchilar misollarni to'g'ri yechsa, berilgan yo'nalish boyicha sayohatga chiqadi. Ya'ni o'rinidan turib poyezdcha ko'rinishida saflanib sinf bo'ylab yuradi. Videoprojektor ekranida qadimiy shaharlarning video tasviri ko'rsatiladi. Samalyot aeroportga qo'ngach, o'quvchilardan chiptalarga diqqat bilan qarash talab etiladi. O'quvchilar chiptadagi xatolikni topishlari kerak ya'ni bitta chiptada joy nomi kichik harf bilan yozilgan bo'lib ushbu xatoni topgan o'quvchidan atoqli otlar qoidasi so'raladi. Tabiat bilan bog'lashda esa videolavhada ko'rgan tasvirlari asosida suhbat o'tkazish mumkin.

XULOSA Shunday qilib, o'yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi – boshqa tarbiya vositalari qatorida to'plangan ijtimoiy tajribani bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazilishini, bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. O'yinning ijtimoiy tabiatini shundan ham bilsa bo'ladiki, u faqat muayyan ijtimoiy sharoitda voqea bo'la oladi. Jamiyatning katta a'zolari bolalarning yashashi va o'sishi uchun zarur moddiy sharoit yaratish asnosida o'yinlarning rivojlanishi uchun ham ob'ektiv imkoniyatlar yaratadilar. O'yin bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida bola tarbiyasidagi ahamiyati o'tmish va hozirgi zamonning ko'plab pedagogik tizimlarida tadqiq etilgan. Ko'pchilik pedagoglar o'yinni bola uchun juda jiddiy va muhim faoliyat sifatida baholashlari be'jiz emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.
2. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 119-120).
3. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
3. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
4. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
5. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
6. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 360–371. Retrieved from
7. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22. Retrieved from
8. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF AARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180. Retrieved from
9. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111. Retrieved from

10. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. *European Scholar Journal*, 4(3), 5-7. Retrieved from
11. Saodat MINGNOROVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF THE BEGINNING 1ST CLASS TEACHER WITH THE HELP OF ETHNOPEDAGOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 33-37. Retrieved from
12. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Open Access Repository*, 4(3), 971–976.
13. Orolboy Kulmominov (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9/10, 112-116.
14. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION *Open Access Repository*, 4(02), 434-437
15. Orolboy KULMOMINOV. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56
16. Erdanova Zamira Olimovna 2023/10/8 ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM *World Bulletin of Social Sciences* 27, 13-17
17. Erdanova Zamira Olimovna 2023/10/8 CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM *Academia Repository* 4, 10, 1-9
18. Erdanova Zamira Olimovna 2023/10/8 THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM *World Bulletin of Social Sciences* 27, 18-22
19. Erdanova Zamira 2023/5/30 AL-HAKIM AT-TERMIZIY QARASHLARIDAN OLIY TA'LIMDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI *Journal of Universal Science Research* 1, 5, 1466-1471

20. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
21. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
22. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
23. Boynazarova, N. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and Researches, 2(1). Извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/960>